



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

DOI: 10.67227

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 6

2026

QO‘QON DAVLAT MUZEY-QO‘RIQXONASIDA QO‘QON XONLIGI DAVRIGA TEGISHLI YOZMA YODGORLIKLARNING SAQLANLANISHI

Madraximova Gulshanoy Sotiboldieva

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Qatag‘on qurbonlari
xotirasi muzeyi, mustaqil tadqiqotchi, dotsent

Annotatsiya

Mazkur maqolada Qo‘qon davlat muzey-qo‘riqxonasida saqlanayotgan yozma yodgorliklar xususida fikr yuritilgan. 19-yuzyillikda bunyod etilgan Xudoyorxon saroyi bugungi kunda Qo‘qon davlat muzey-qo‘riqxonasiga aylantirilgan. Bu yerda turli asori-atiqalar bilan birga Qo‘qon xonligi davriga tegishli yozma manbalar ham saqlanadi.

Kalit so‘zlar: muzey-qo‘riqxonona, madaniy meros, qo‘lyozma, kolleksiya, jamg‘arma, eksponat, tarixiy solnomalar.

СОХРАНЕНИЕ ПИСЬМЕННЫХ ПАМЯТНИКОВ, ОТНОСЯЩИХСЯ К ПЕРИОДУ КОКАНСКОГО ХАНСТВА, В КОКАНСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ МУЗЕЕ- ЗАПОВЕДНИКЕ

Мадрахимова Гульшаной Сотiboldиевна

Музей памяти жертв репрессий при Кабинете Министров Республики Узбекистан, независимый
исследователь, доцент

Аннотация

В данной статье рассматриваются письменные памятники, хранящиеся в Государственном музее-заповеднике Коканда. Дворец Худойорхана, построенный в XIX веке, сегодня преобразован в Государственный музей-заповедник Коканда. Наряду с различными артефактами и древностями, здесь также хранятся письменные источники периода Кокандского Ханства

Ключевые слова: музей-заповедник, культурное наследие, рукопись, коллекция, фонд, экспозиция, исторические хроники.

PRESERVATION OF WRITTEN MONUMENTS RELATING TO THE PERIOD OF THE KOKAN KHANATE IN THE KOKAN STATE MUSEUM-RESERVE

Madraximova Gulshanoy Sotiboldieva

Museum of Memory of the Victims of Repression under the Cabinet of Ministers of the Republic of
Uzbekistan, Independent Researcher, Associate Professor

Abstract

This article discusses the written monuments stored in the Kokand State Museum-Reserve. The palace of Khudoyorkhan, built in the 19th century has been transformed into the Kokand State Museum-Reserve today. Along with various artifacts and antiquities, written sources from the Kokand Khanate period are also stored here

Keywords: museum-reserve, cultural heritage, manuscript, collection, fund, exhibit, historical chronicles.

Mustaqillik yillarida o‘zbek davlatchiligi tarixiga, uning madaniy merosiga bo‘lgan qiziqish tobora ortib bormoqda. Bu esa o‘z navbatida tarixga yangicha qarashga va madaniy merosni tabiiy ravishda qayta anglashga imkon beradi. Ajdodlardan qolgan madaniy-tarixiy merosga bo‘lgan munosabat o‘zgarib, «Tarixiy merosni asrab-avaylash, o‘rganish va ajdodlardan avlodlarga qoldirish davlat siyosatining eng muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biri» [1] sifatida e‘tibor qaratilmoqda.

Tarixiy-madaniy yodgorliklar davlat tomonidan muhofaza qilinib, ularda muzeylashtirish ishlari olib borilmoqda. Shunday me‘moriy obidalardan biri bo‘lgan Xudoyorxon saroyida hozirgi kunda Qo‘qon davlat muzey-qo‘riqxonasi faoliyat olib bormoqda. Tarix voqealariga guvoh bo‘lgan va o‘ziga xos uslubda qurilgan bu kabi yodgorliklarni saqlab qolish bugungi jamiyatning har jihatdan yuksalishiga zamin yaratadi.

XVIII–XIX asrlar davomida Qo‘qon xonligi O‘rta Osiyoning tarixiy-madaniy taraqqiyotiga sezilarli darajada hissa qo‘shgan. Ushbu davr madaniy merosining ifodasi boshqa sohalar singari

muzeyshunoslik amaliyotida ham alohida ahamiyat kasb etmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI.

Qo‘qon davlat muzey-qo‘riqxonasida saqlanayotgan yozma yodgorliklar xususida M. Mansurova, A. Turdaliev, Ya. Dadaboevning ilmiy maqola va monografiyalarida ayrim ma‘lumotlar keltirib o‘tilgan. Tadqiqotlar tahliliga ko‘ra, bugungi kunda Qo‘qon davlat muzey-qo‘riqxonasida muzey eksponatlarini boyitib borish natijasida 60 410 dan ortiq eksponat to‘plangan [2]. Umumiy jamg‘armaning 9177 tasini yozma manbalar va hujjatlar kolleksiyasi tashkil etadi. Ular Qo‘qon xonlariga tegishli hujjatlar, Rossiya mustamlakachiligi davrida chop etilgan adabiyotlar, shuningdek, 80 dan ortiq Qo‘qon adabiy muhiti vakillarining asarlari hisoblanadi. Qolaversa, muzey tashkil etilgan paytdan boshlab arab, fors va turkiy tillardagi qadimiy qo‘lyozmalarni to‘plashga katta ahamiyat berilgan.

Muzey-qo‘riqxonasi fondlarida Sharqning noyob qo‘lyozmalari ham saqlanmoqda. Ushbu qo‘lyozmalar soni 84 tani tashkil etadi. Arab tilida kitobat qilingan qo‘lyozmalar 40 ta. Ularning ichida 4 tasi Qur‘oni karimning qo‘lyozma nusxalaridir [3]. Ushbu muzey-qo‘riqxonaga ham boshqa muzeylar kabi ijtimoiy hayotda madaniy maskan sifatida muhim ahamiyatga ega bo‘lib, eksponatlarga juda boy.

Muzey jamg‘armasiga qabul qilingan qo‘lyozmalarning umumiy soni jami 2900 ta, toshbosma kitoblar esa 1300 tani tashkil etadi. Muzey jamg‘armasida saqlanayotgan qo‘lyozmalarning ko‘p qismi XVIII–XIX asrlarda ko‘chirilgan [4]. Qo‘qonda faoliyat olib borgan xattotlar — Mulla Ismoil Xattot, Abdulhay Muarraf, Mahmudxon Nizomiy, Muhayyir, Xolmirza Xattot kabi san‘atkorlarning qo‘lyozmalari “Qo‘qon” davlat muzey-qo‘riqxonasida saqlanmoqda. Bu qo‘lyozmalarda yozuv, bezak, sahifa tashkiliyati, maktubiy shakl va estetik ravonlik uyg‘un bo‘lgan.

Qo‘lyozmalar to‘plami XIX asrning durdonalari hisoblanadi. Masalan, Xudoyorxon topshirig‘iga ko‘ra qayta ko‘chirilgan Qur‘on, madrasalarning darsliklari, shariatga oid asarlar, shuningdek, Fuzuliyning g‘azallari to‘plamdan munosib joy olgan.

MUHOKAMA. Bugungi kunda Qo‘qon davlat muzey-qo‘riqxonasi fondidagi qo‘lyozmalar orasida adabiy merosga doir Ahmad Yassaviy, Nizomiy Ganjaviy, Farididdin Attor, Jaloliddin Rumiy, Avhadiddin Anvari, Salmon Sovajiy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy singari ulug‘ shoir va mutafakkirlar asarlarining 600 dan ortiq qo‘lyozma nusxalari asosiy o‘rin egallaydi. Ayniqsa, Alisher Navoiy asarlarining qo‘lyozma nusxalari ko‘pchilikni tashkil etadi. Jamg‘armada Alisher Navoiyning 41 ta qo‘lyozma asari, 8 ta “Xamsa” asarining qo‘lyozmalari, 17 ta terma devoni, “Xamsa”ning 1811-yilda hamda 1857-yilda Qo‘qonda kitobat qilingan nusxalari, Xudoyorxon Qur‘on kitobi (1856-yil, hijriy 1273), shariat masalalariga doir “Fatvo kitobi”, shuningdek, Qo‘qon xonlaridan SHERALIXON va Xudoyorxonning farmon hamda yorliqlari muzeyning eng qadimgi va nodir eksponatlari hisoblanadi [5].

O‘zbek va ozarbayjon tillaridagi qo‘lyozmalar miqdor jihatdan ushbu kolleksiyada ikkinchi o‘rinda turadi va ular 24 tani tashkil etadi. Fors tilidagi qo‘lyozmalar ham 24 tani tashkil etadi. Ular ichida badiiy adabiyotga oid qo‘lyozmalar nisbatan ko‘proq. Hofiz Sheroziy, Mirzo Abdulqodir Bedil (1644–1721) devonlari, «Jome‘ ul-muhammasot» («Muhammaslar to‘plami»), «Dostoni Mahmud va Ayozi», so‘fiyona g‘azallar to‘plami shular jumlasidandir [6].

Qo‘qon davlat muzey-qo‘riqxonasida yozma yodgorliklar va hujjatlar jamg‘armasi ham alohida e‘tibor bilan saqlanadi. Ushbu jamg‘arma qog‘oz bilan bog‘liq bo‘lgan barcha eksponatlarni o‘z ichiga oladi. Jamg‘armada qog‘oz ishlab chiqarish, xattotlik va kitobat san‘atlari, yer-suv mulkchiligi tarixi, vaqf institutlari, qozixona faoliyati, toshbosma nashrlar, nashriyot, idoralarda ish yuritish, ijtimoiy hayot hamda madaniy-ma‘rifiy hayot o‘z aksini topgan.

Muzeyda shariat qonun-qoidalariga oid asar nusxalari ham saqlanadi. Masalan, 1256 h.y. (1840-yil)da ko‘chirilgan, muallifi Ubaydullo ibn Mas‘ud bo‘lgan asar mavjud. Unda «Xattoti Muhammad Rizo bin Mullo Xudoyqul» deb yozilgan. (Qizil kartonli muqovasi keyinroq tayyorlangan.) 110 varaq (220 bet). 4044/DP-2753. Shuningdek, XIX asrda xattot Qori Abdurahmon tomonidan ko‘chirilgan “Devoni Bedil” qo‘lyozmasi ham mavjud bo‘lib, ushbu qo‘lyozmadan madrasada darslik sifatida foydalanilgan. Ikki ustundagi matn zarhal jadval ichiga joylashtirilgan. 252 varaq (504 bet), 12,5 × 20,5 sm [7].

Bu jamg‘armadagi eksponatlarning umumiy soni jamg‘arma mohiyati va mazmuniga ko‘ra quyidagi bo‘limlarni o‘z ichiga oladi [8]:

1-jadval

№	Qo‘qon davlat muzey - qo‘riqxonasida saqlanayotgan yozma yodgorliklar va hujjatlar jamg‘armasi	Umumiy soni
1.	Xonlik davri hujjatlari	370

2.	Qo'lyozma kitoblar	107
3.	Toshbosma asarlar	368
4.	Kiril yozuvidagi nodir kitoblar	685
5.	Vaqtli matbuot nashrlari, broshyura, buklet	1662
6.	Kartalar, sxemalar, tarxlar, diagrammalar	114
7.	Mustamlaka davri hujjatlari	4773
8.	Boshqa hujjatlar	243
	Jamg'armadagi eng noyob eksponatlar: XIV-XIX asrga oid qo'lyozmalar, Xudoyorxonga qarashli Qur'on, qo'lyozma bayozlar, devonlar, husnixat namunalari, Qo'qon qog'ozi, vaqfnomalar, shajaralar, vasiqalar, Qo'qon xonlarining farmon va yorliqlari.	
	Jami eksponatlar soni:	8322

Madaniy merosni aks ettiruvchi eksponatlar o'zbek xalqining XVIII–XIX asrlarga oid turmush tarzi va madaniyatini o'rganishda katta ahamiyatga ega, chunki ularda tarixiy davr ruhining aks etishi ularning qiymatini yanada oshiradi.

Bugungi kunda “Qo'qon” davlat muzey-qo'riqxonasining fondlarida Qo'qon xattotlik maktabiga mansub qo'lyozmalar, Qur'onlar, devonlar va boshqa asarlar saqlanmoqda. Qo'qon davlat muzey-qo'riqxonasi fondida NV-575 raqami ostida «Xat namunalari» ham mavjud.

NATIJALAR. Qo'qon xoni Xudoyorxon davrida ham Qur'oni karimning qo'lyozmalari ko'p nusxada ko'chirilgan va vaqf mulki sifatida masjid hamda madrasalarga tarqatilgan. Uning nusxasi “Qo'qon” davlat muzey-qo'riqxonasida ham saqlanadi. Qur'oni karimning № 722, 723, PD-1916, DP-2498, kol-96/1 raqamli nusxalarida Xudoyorxonning muhri bilan birga kichik o'lchamdagi ovalsimon “vaqf fiy sabil-alloh” yozuvi bitilgan muhr ham qo'yilgan. Ushbu muhr boshqalaridan farqli ravishda ko'p o'rinlarda matn orasiga bosilgan. Darhaqiqat, “Sharq xalqlarining ijtimoiy va ma'naviy rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatgan Qur'on insoniyatning madaniy merosi” hisoblanadi. Qur'on islom dinining asosi ekanligi haqli ravishda tan olingan [9].

“Qo'qon” davlat muzey-qo'riqxonasida Eshonquli dodxohga tegishli muhr qo'yilgan bir qo'lyozma Qur'oni karim [10] ham saqlanmoqda. Mazkur qo'lyozmadagi muhrda “Vaqf kard Eshonquli dodxoh ibn Lashkar Qushbegi, 1243/1827–1828” so'zlari bitilgan [11]. Ustaning ismi, ustalik qilish huquqi berilgan sanani ifodalagan muhrlar Qo'qonda sariq misdan yoki tarkibida yetti unsur — temir, rux, qalay, mis, qo'rg'oshin, kumush, oltin bo'lgan xaftjush — «sharq bronzasi»dan tayyorlangan [12].

Muzeylar orqali yozma yodgorliklar ilmiy tadqiqotlar uchun ham muhim manbaga aylanadi. Tarixchilar, san'atshunoslar va arxeologlar bu asarlarni o'rganish orqali o'sha davrning madaniy va tarixiy jarayonlarini chuqur tushunishga yordam beradilar. Shuningdek, muzeylashtirish mazkur asarlarni yo'qolishdan himoya qilishga imkon yaratadi. Qo'qon davlat muzey-qo'riqxonasi yodgorligi — O'rda (Xudoyorxon saroyi) Qo'qon xonligi tarixini aks ettiruvchi o'ziga xos eksponatlarga boyligi bilan ajralib turadi.

XULOSA. Qo'qon xonligining so'nggi hukmdori Xudoyorxon saroyi binosida “Qo'qon” davlat muzey-qo'riqxonasining tashkil etilishi, uning tasarrufiga 6 ta muzey va 4 ta madaniy meros ob'ektining birlashtirilishi xonlik madaniy merosini asrab-avaylash va saqlab qolish uchun davlat siyosati darajasida amalga oshirilgan ishlar hisoblanadi. Muzey-qo'riqxonasidagi Qur'oni karimning qo'lyozma nusxalari, tarixiy solnomalar, tasviriy-amaliy san'at namunalari, xalq turmush tarzini, o'tmish voqealarini ko'rsatib beruvchi arxiv ma'lumotlarining har biri Qo'qon shahri tarixi, uning o'ziga xos san'ati va madaniyatining yorqin namunasi hisoblanadi. Muzey-qo'riqxonada Qo'qon xonligi madaniy taraqqiyotini yoritib beruvchi ekspozitsiyadan ko'rish mumkinki, xonlik davrida nafaqat O'zbekiston, balki butun jahon sivilizatsiyasi rivojiga ta'sir ko'rsatgan o'ziga xos madaniy meros shakllangan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Islom hamkorlik tashkiloti Tashqi ishlar vazirlari kengashining 43-sessiyasida so'zlagan nutqidan // Xalq so'zi. – 2016-yil 17-oktyabr.
2. Aminova M., Dadaboyev Ya., Bahridinova N. Qo'qon davlat muzey-qo'riqxonasi faoliyati haqida // Theoretical Aspects in the Formation of Pedagogical Sciences: International Scientific Online Conference.

- 2025. – B. 71.
3. Turdaliyev A. Qo‘lyozmalar va hujjatlar. – Qo‘qon davlat muzey-qo‘riqxonasi. – B. 110.
 4. Aminova M., Dadaboyev Ya., Bahriddinova N. Qo‘qon davlat muzey-qo‘riqxonasi faoliyati haqida // Theoretical Aspects in the Formation of Pedagogical Sciences: International Scientific Online Conference. – 2025. – B. 71.
 5. Aminova M., Dadaboyev Ya., Bahriddinova N. Qo‘qon davlat muzey-qo‘riqxonasi faoliyati haqida // Theoretical Aspects in the Formation of Pedagogical Sciences: International Scientific Online Conference. – 2025. – B. 71–72.
 6. Turdaliyev A. Qo‘lyozmalar va hujjatlar. Qo‘qon davlat muzey-qo‘riqxonasi to‘plami // O‘zbekiston madaniy merosi. – XLIII jild. – Toshkent: Silk Road Media, 2022. – B. 110.
 7. Qo‘lyozmalar va hujjatlar. Qo‘qon davlat muzey-qo‘riqxonasi to‘plami // O‘zbekiston madaniy merosi. – XLIII jild. – Toshkent: Silk Road Media, 2022. – B. 120.
 8. Jadval tadqiqotchi G.S. Madraximova tomonidan tuzilgan.
 9. Madrakhimova G. Coverage of the National-Cultural and Religious Processes in the Press in the Years of Independence // Global Problems and Development Strategies. – 2023. – № 10. – URL: <https://> (murojaat sanasi: 28.11.2023).
 10. Qur‘oni Karim. Qo‘qon davlat muzey-qo‘riqxonasi fondi, qo‘lyozma, DP-2498, kol-96/2.
 11. Abdullayev R. Qo‘qon xonligida kitobat ishi va kutubxonalar tarixi. – Toshkent: Tamaddun, 2025. – B. 122–127.
 12. Raxmankulova M. O‘rta Osiyo kitobat san‘ati tarixidan. – Toshkent: Tafakkur nashriyoti, 2015. – B. 94.